

AKT SOHASIGA OID AUTENTIK MATNLAR TARJIMASIDA TURLI USUL VA YONDASHUVLARNING QO‘LLANILISHI

Ibragimova Nayira Anvarovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori,

filologiya fanlari doktori (DSc)

<https://orcid.org/0000-0001-7749-991X>

nayira@inbox.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada AKT diskursidagi autentik matnlarni tarjima qilishning turli usul va yondashuvlari, o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan kontekstli yondashuv, konsepsiya yondashuvi, mahalliyashtirishdir (lokalizatsiya), kommunikativ ekvivalent yondashuv, kontrastli yondashuv va semiotik tahlil kabilar o‘rganilgan. AKT diskursidagi autentik matnlarni tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish tarjima sohasining muhim vazifasi bo‘lib, bu butun dunyo bo‘ylab foydalanuvchilarga tushunarli va dolzarb bo‘ladigan yuqori sifatli tarjimalarni yaratishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: *AKT diskursi, kontekstli yondashuv, konsepsiya yondashuvi, mahalliyashtirishdir (lokalizatsiya), kommunikativ ekvivalent yondashuv, kontrastli yondashuv, semiotik tahlil.*

APPLICATION OF VARIOUS METHODS AND APPROACHES IN TRANSLATING AUTHENTIC TEXTS IN THE ICT FIELD

Ibragimova Nayira Anvarovna

Professor, Doctor of Philological Sciences (DSc),

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-

Khwarizmi

<https://orcid.org/0000-0001-7749-991X>

nayira@inbox.ru

ABSTRACT

This article examines various methods and approaches to translating authentic texts in ICT discourse, as well as their specific features. In particular, it analyzes the contextual approach, conceptual approach, localization, communicative equivalence approach, contrastive approach, and semiotic analysis. Studying the specific

characteristics of translating authentic texts in ICT discourse is an important task in the field of translation, as it enables the creation of high-quality translations that are clear and relevant to users worldwide.

Keywords: *ICT discourse, contextual approach, conceptual approach, localization, communicative equivalence approach, contrastive approach, semiotic analysis.*

ПРИМЕНЕНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МЕТОДОВ И ПОДХОДОВ ПРИ ПЕРЕВОДЕ АУТЕНТИЧНЫХ ТЕКСТОВ В СФЕРЕ ИКТ

Ибрагимова Найира Анваровна

и.о. профессор, доктор филологических наук (DSc),

Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-

Хоразми

<https://orcid.org/0000-0001-7749-991X>

nayira@inbox.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются различные методы и подходы к переводу аутентичных текстов в дискурсе ИКТ, а также их специфические особенности. В частности, анализируются контекстуальный подход, концептуальный подход, локализация, подход коммуникативной эквивалентности, контрастный подход и семиотический анализ. Изучение специфики перевода аутентичных текстов в дискурсе ИКТ является важной задачей переводоведения, поскольку это позволяет создавать высококачественные переводы, понятные и актуальные для пользователей по всему миру.

Ключевые слова: *дискурс ИКТ, контекстуальный подход, концептуальный подход, локализация, коммуникативная эквивалентность, контрастный подход, семиотический анализ.*

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) diskursida matnlarni tarjima qilish jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi muhim vazifalardan biridir. Globallashuv va xalqaro hamkorlikning o‘shishi sharoitida tarjima alohida ahamiyatga ega. O‘z navbatida, autentik matnlar tarjima uchun asosiy materialdir, chunki ular real hayot, nutq madaniyati va madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Biroq, AKT diskursidagi autentik matnlarning tarjimasini, tarjimondan ma’noni yetkazib berish va

asl nusxaning lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish uchun turli texnika va yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi.

Tarjima muammosining dolzarbligi hozirda mamlakatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir tobora intensivlashib borayotgani va tarjima AKT sohasidagi muloqotning zarur qismiga aylanib borayotgani bilan belgilanadi. Biroq, AKT diskursidagi autentik matnlarni samarali tarjima qilish uchun turli usullar va yondashuvlarni qo‘llash talab etiladi. Ushbu maqolada aynan AKT diskursi tarjimasida qo‘llaniladigan turli usul ba yondashublar tahlil qilinadi.

AKT diskursida autentik matnlarni tarjima qilish turli lingvistik va madaniy jihatlarga alohida e‘tibor berishni taqozo qiladi. Mahalliy til vakillari, xususan, ingliz tili tashuvchilari nutqning xususiyatlarini, barcha nozikliklarini va kamchiliklarini ifodalovchi, autentik audio va videomatnlarni tinglash uchun axborot manbalari sifatida foydalanish muhimligi haqidagi savol lingvodidaktikada ilgari ham muhokama qilingan edi. AKT diskursidagi autentik matnlarni tarjima qilishda, tarjimaning maqsadi va asl nusxaning xususiyatlariga qarab turli texnik usullar va yondashuvlardan foydalanish mumkin. Ushbu maqolda AKT diskursida autentik matnlarni tarjima qilishning eng samarali texnikalari va yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz.

METODOLOGIYA

Maktabda chet tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, podkastlardan foydalanish uchun lingvodidaktik va metodik asoslash P.V.Sisoyev, M.N.Yevstigneyev asarlarida berilgan. [1] A.G.Solomatina ta‘lim podkastlari orqali gapirish va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodologiya va ko‘nikmalarni tasvirlab bergan.[2] P.V.Sisoyev podkast xizmatining xossalari va vazifalarini maktabda chet tili ta‘limini axborotlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollaridan biri sifatida lingvodidaktik modellashtirish va tilni podkastlar orqali o‘qitish usullarida zarur bo‘lgan omillar sifatida ko‘rib chiqqan.[3]

AKT diskursidagi autentik matnlarni tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri *madaniy farqlar va amaliyotlarni* hisobga olishdir. Bu nafaqat tegishli terminlar va iboralarni tanlashni, balki ushbu terminlar va iboralar qo‘llaniladigan ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olishni ham anglatadi. Masalan, bir mamlakatda ko‘proq “klaviatura” atamasi, boshqasida esa “klaviatura paneli” bo‘lishi mumkin, shuning uchun har bir mintaqadagi foydalanuvchilarga eng tushunarli bo‘ladigan atamalarni tanlash muhimdir.

AKT diskursidagi autentik matnlarni tarjima qilishning yana bir o‘ziga xosligi, *mahsulot yoki xizmatning texnik xususiyatlarini hisobga olishdan* iborat. Ba’zi texnik

terminlar va tushunchalar mamlakat va uning ona tiliga qarab farq qilishi mumkin, shuning uchun foydalanuvchilar uchun iloji boricha aniq va tushunarli bo'lgan terminologiyadan foydalanish muhimdir. Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, ba'zi terminlar eskirgan yoki endi foydalanilmasligi mumkin, shuning uchun har bir mintaqada terminologiyadan foydalanish tendensiyalarini kuzatish joiz.

Shuni ham yodda tutish kerakki, AKT diskursidagi autentik matnlar turli tillarda yozilishi va turli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Shu munosabat bilan ba'zan nafaqat asosiy matnni, balki tugmalar, menyular, muloqot oynalari kabi qo'shimcha ma'lumotlarni ham tarjima qilish kerak bo'ladi. AKT diskursidagi autentik matnlarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish tarjimonlarga foydalanuvchilarning talablariga javob beradigan yuqori sifatli tarjimalarni yaratishga yordam beradi. Madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda, texnik aniqlik va boshqa omillar dunyoning turli mintaqalarida mahsulot va xizmatlardan foydalanish samaradorligini oshiradigan yanada to'g'ri va tushunarli tarjimalarni yaratishga ko'maklashadi.

AKT sohasiga oid autentik matnlarni tarjima qilishda qo'llaniladigan yondashuvlardan birinchisi **kontekstli yondashuv** hisoblanadi. Bu yondashuvda tarjimon so'z va jummalarning ma'nosini aniqlashda kontekstual ma'lumotlardan foydalanishga harakat qiladi. AKT diskursidagi texnik matnlar ko'pincha maxsus terminlar va qisqartmalardan iborat bo'lganligi tufayli, tarjimada ushbu yondashuv dolzarb hisoblanadi. Masalan, "input/ output" (kirish/chiqish) termini yozilgan texnik matnni o'zbek tiliga tarjima qilishda, tarjimon kontekstual ma'lumotlardan foydalanishi va termini "kiruvchi/chiquvchi ma'lumotlar" deb tarjima qilishi mumkin. Bu yo'nalishda A.V.Fedorov, S.Vlaxov va S.Florin, G.D.Tomaxin, G.V.Shatkov, V.S.Vinogradov, V.N.Komissarov, N.K.Garbovskiy va boshqalar izlanishlar olib borganlar. [4]

Kontekstli yondashuvdan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

1. Til va uslubga moslashish. Materiallarni tuzishda yoki boshqa tilga tarjima qilishda, maqsadli auditoriyaning madaniy va lingvistik o'ziga xos jihatlarini hisobga olish joizdir. Kontekstli yondashuv tarjimonga to'g'ri til va uslubni tanlashga, shuningdek muayyan vaziyatda kontekstni inobatga olishga yordam beradi.

2. Ma'no va nozik nyuanslarni aniqlashtirish. Internet va AKT diskurslari global bo'lganligi tufayli, AKT diskursida yaratilgan matnlar, odatda, faqat ma'lum madaniy va lingvistik guruhlar tomonidan tushunilishi mumkin bo'lgan nozik nyuanslarni o'z ichiga oladi. Kontekstli yondashuv tarjimonga eng aniq va tushunarli tarjimini yaratish uchun ushbu nyuanslarni aniqlashtirishga imkon beradi.

3. Texnik axborot va terminologiyaga aniqlik kiritish. AKT diskursida, ayniqsa, tizim yoki texnologiyalar haqida gap ketganda, til va terminologiya juda aniq bo'lishi talab etiladi. Kontekst yondashuvi noto'g'ri texnik terminlarni qo'llashni oldini olib, to'g'ri va tushunarli matn yaratilishiga yordam beradi.

4. Mahalliy qoidalar va qonunlarni hisobga olish. AKT sohasi ko'plab qoidalar va qonunlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ular mamlakatdan mamlakatga va mintaqalarga qarab farqlanishi mumkin. AKT diskursida kontekst yondashuvidan foydalanish matnning barcha xususiyatlari va nyanslarini hisobga olishga yordam berib, tarjimonga maqsadli auditoriya uchun eng to'g'ri va tushunarli matnni taqdim etish imkonini beradi.

Autentik matnlar tarjimasidagi keyingi yondashuv **konsepsiya yondashuvidir**. Bunda AKT diskursidagi matnlarni tarjima qilishda yoki yaratishda matnning konsepsiyasi va konseptual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Kontekst juda xilma-xil bo'lib, matnning aniq turiga, uning maqsadiga va yo'naltirilgan auditoriyaga bog'liq. Madaniy ekvivalent yondashuvi bilan tarjimon asl muallif yetkazib bermoqchi bo'lgan ma'noni ifodalash uchun maqsadli auditoriya madaniyati va tilida o'xshashlikni topishga intiladi. AKT diskursida aniq ma'lumotlarni yetkazish uchun, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan maxsus texnik terminlar va jargonlar mavjud. Konseptual yondashuvda tarjimon ushbu terminlarni so'zma-so'z tarjima qilish o'rniga, ularning konseptual ma'nosini qamrab olishga e'tibor qaratadi. Masalan, "cloud computing" termini "bulutli hisoblash" deb emas, balki "masofaviy serverlardagi (internetda) ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash" deb izohli tarjima berilsa, maqsadga muvofiqdir.

Madaniy ekvivalent – bu bir madaniyat yoki til boshqa madaniyat ta'sirida bo'lgan tushunchalarni qanday izohlashi va ifodalashiga oid konseptual belgidir. AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)da madaniy ekvivalent yondashuvi – bu AKT mahsulotlarini moslashtirishda (lokalizatsiya qilishda) qo'llaniladigan tarjimaga uslubiy yondashuv hisoblanadi. Konseptual yondashuv madaniy ma'lumot ortidagi konsepsiyani tushunish va maqsadli til yoki madaniyatda tegishli ekvivalentni topishni o'z ichiga oladi. Jumladan, agar zangori ekranda (AKTga doir) bo'layotgan ko'rsatuvda maqsadli auditoriya madaniyatida unchalik mashhur bo'lmagan teleko'rsatuvga xavola keltirilsa, tarjimon uni maqsadli auditoriyaga ko'proq tanish bo'lgan shunga o'xshash mashhur ko'rsatuv bilan almashtirib tarjima qilishi mumkin.

AKT sohasiga oid autentik matnlarni tarjima qilishdagi yana bir usul **mahalliyashtirishdir** (lokalizatsiya). Mahalliyashtirish mahsulot yoki xizmatni aniq bir mamlakat yoki mintaqaga moslashtirishdan iborat. Bu kontentni tarjima qilish

uchun asos bo'lishi bilan bir qatorda, grafik dizaynni o'zgartirishi ham mumkin. Mahalliyashtirish usulida, autentik matnlarning asosiy mazmunini tarjima qilish bilan birga, muayyan atama va iboralarni moslashtirishni va maqsadli mintaqaning umumiy madaniy va lingvistik xususiyatlarini inobatga olish ko'zda tutilgan. Ushbu usul bo'yicha ko'plab tadqiqotlar qilingan bo'lib, shulardan biri A.V.Fedorovning "Tarjima nazariyasining umumiy asoslari" asaridir. Muallif "tarjima" tushunchasini ikki qismga ajratadi: asliyat tilidagi nutq faoliyati natijasi va boshqa tilda qayta yaratiladigan jarayon maxsuli. [5]

Mahalliyashtirish (inglizchadan localization) - mahsulot yoki xizmatni muayyan madaniyat, til, texnik standartlar va mahalliy bozorlarga moslashtirish jarayonidir. Mahalliyashtirish kontentni (veb-sahifalar, dasturlar, o'yinlar, hujjatlar va boshqalar) muayyan hudud sharoitlari va maqsadli auditoriyasiga moslashtirib, natijada mahsulot sifatini yaxshilaydi va uning raqobatbardoshligini oshiradi.

AKT mahsulotlarini mahalliyashtirish jarayonida tarjimon, tarjima qilinayotgan hududlar va tillarning madaniy xususiyatlari va qadriyatlarini hisobga olishi zarurdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari aslida ko'p tillar va turli madaniyatlarni qamrab olgan bo'lib, tarjimada asosiy mazmun saqlanib qolishi uchun, tarjima jarayonida to'g'ri yondashuv va usuldan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy ekvivalentlik yondashuvi ushbu madaniy qadriyatlar yoki xususiyatlarga mos keladigan to'g'ri tarjimani aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Bu esa tarjimon, har bir mintaqadagi madaniy farqlarni va tegishli terminologiyani tushunishi kerak deganidir. Masalan, ko'plab so'zlar yoki iboralar eskirgan bo'lishi yoki turli madaniyatlarda salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin va bu asl mazunni noto'g'ri tushunishga olib keladi. Bu ekvivalent, shuningdek, tarjimonga kerakli tarjimani topish maqsadida muayyan termin yoki ifoda qo'llaniladigan kontekstni hisobga olish imkonini beradi.

Mahalliyashtirish, yanada muvaffaqiyat olib keluvchi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish yo'lida muhim tarkibiy qism vazifasini bajarib, bu odamlarga maqsadli auditoriya bilan umumiy til topishishga, shuningdek foydalanuvchilarning ishonchini oshirishga imkon beradi. Aksariyat yirik AKT kompaniyalari korxonalar va dunyoning turli mintaqalaridan kelgan iste'molchilar o'rtasida yanada ko'proq kelishuvga erishish uchun, o'z mahsulot va xizmatlarini rivojlantirish strategiyalariga lokalizatsiyani kiritganlar.

AKT matnlarni tarjima qilishdagi keyingi yondashuv **kommunikativ ekvivalent yondashuv** hisoblanadi. Bu yondashuv bilan tarjimon asliyat matning o'z ma'nosini maqsadli auditoriyaga tushunarli bo'lgan usul va ifodalar yordamida yetkazishga intiladi. E.Sapir kommunikativ ekvivalent yondashuv haqida: " ..til –

bizga ma'lum bo'lgan har bir jamiyatda kommunikativ jarayondir" deb aytgan. [6] Til – muloqotning muhim asosidir, chunki u shaxslararo o'zaro ta'sirning barcha shakllarida eng aniq va keng e'tirof etilgan ifoda shakli bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, til, kommunikativ hamjamiyatni ta'minlab, mobillik – kommunikativlikning birlamchi vazifasini belgilaydi. Ushbu yondashuv, AKT diskursidagi biznes va reklama matnlarini tarjima qilishda dolzarbdir. Zero, ushbu matnlar potentsial iste'molchiga ma'lumotni iloji boricha samarali ravishda yetkazish uchun xizmat qiladi. Masalan, reklama matnini boshqa tillarga tarjima qilishda, tarjimon potentsial iste'molchining e'tiborini jalb qilish maqsadida, turli yondashuvlardan foydalanishi mumkin.

AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)da kommunikatsiya ekvivalent yondashuvi alohida ahamiyatga ega, chunki ko'plab kompaniyalar va tashkilotlar turli onlayn platformalar va xizmatlar yordamida global biznes muloqotiga o'tmoqdalar. Bunday hollarda, kommunikativ ekvivalent yondashuvi matnlar, hujjatlar, veb-sahifalar va boshqa materiallarning kompyuter dasturlari va texnologiyalaridan foydalangan holda, boshqa tillarga to'g'ri va sifatli tarjima qilishni ko'zda tutadi.

XXI asr boshlarida kasbiy mobillik fenomenini o'rganishni o'qituvchilar davom ettirdilar. Y.I.Kalinovskiy harakatchanlikni tabiat, madaniyat yoki jamiyatdagi o'zgaruvchan vaziyatlar ta'siri ostida ijtimoiy, madaniy yoki kasbiy muhitda holatni tezda o'zgartira oladigan shaxsga xos darajasi (statusi) sifatida baholadi. [7] Bu tasnif zamonaviy sivilizatsiya shaxsga qo'yadigan talablarni aks ettiradi (tezlik, temp, samaradorlik, intensivlik, operativ javob berish).

AKTda kommunikativ ekvivalent yondashuvni amalga oshirishda yordam beradigan ko'plab dasturiy vositalar mavjud. Ular tarjima jarayonini avtomatlashtirish yoki qo'lda tahrirlangan tarjimani yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, tarjima qanchalik to'g'ri va o'z vaqtida bo'lganligini aniqlashga yordam beradigan, hamda, har qanday xato va kamchiliklar haqida xabar beradigan onlayn xizmatlardir.

Autentik matnlar tarjimasida yana bir yondashuv **kontrastli yondashuvdir**. Bunda, tarjimon matnlarning ziddiyatli tabiatini yetkazish uchun asl nusxa va tarjima o'rtasidagi madaniy, leksik va uslubiy farqlardan foydalanadi. Ushbu yondashuv, AKT diskursida adabiy, badiiy va falsafiy matnlarni tarjima qilishda dolzarbdir, chunki ularda ko'pincha qarama-qarshi tasvirlar va g'oyalar mavjud. Masalan, reklama materiallarini boshqa tilga tarjima qilishda tarjimon mahsulotning jozibadorligi va o'ziga xosligini yetkazish uchun jumla va shiorlarda kontrastdan foydalanadi. Ba'zan, tilda aks etuvchi madaniyatni so'z bilan uzatishda qiyinchiliklar

tug‘iladi. Zero, har bir xalq uzoq vaqt davomida o‘zgarib kelgan bo‘lib, bu esa ajdodlardan qolgan ma‘lumotlarning hozirgi shakli, hozirgi kunda tushunarli bo‘lgan leksik birliklarni joriy etish orqali yetkaziladi. Texnik hujjatlarning boshqa tilga tarjimalarini misol qilib olsak, masalan: kiberxavfsizlik haqidagi maqolalarni boshqa tilga tarjima qilishda tarjimon zamonaviy axborot texnologiyalari dunyosida xavfsizlikning o‘rni va ahamiyatini yetkazish uchun terminlar va tavsiflar bo‘yicha kontrastdan foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqdagi maqolalarni boshqa tilga tarjima qilishda, tarjimon turli mamlakatlarda ijtimoiy media madaniyatidan foydalanishdagi farqlarni samarali tasvirlash uchun, til va terminologiya qarama-qarshiliklaridan foydalanadi. Xuddi shunday, sun‘iy intellekt bilan bog‘liq maqolalarni tarjima qilishda ham, tarjimon mazmunning ilmiy va moddiy mohiyatini bildirish uchun qarama-qarshi terminlardan, ya‘ni kontrastli yondashuvdan foydalanadi.

Ba‘zan, tarjimada kontrast usulini qo‘llashda tarjimon nafaqat leksik va madaniy farqlarni, balki matnning qo‘llanilayotgan konsepsiyasini ham hisobga olishi kerak. Misol uchun, ba‘zi mamlakatlarda o‘zaro aloqalar paytida ma‘lum masofani saqlash odatiy hol va hurmat belgisi bo‘lsa, boshqalarda esa yaqin jismoniy aloqa, iliqlik va do‘stona munosabat belgisi sifatida na‘moyon bo‘ladi. Shunday vaziyatlarda, tarjimon shaxsiy makon me‘yorlarida ushbu madaniy nomutanosibliklarni to‘g‘ri tasvirlash uchun, qarama-qarshi til va terminologiyani diqqat bilan tanlashi kerak.

AKT sohasiga oid autentik matnlarni tarjima qilishda yana bir muhim yondashuv **semiotik tahlildir**. Semiotika axborotlarni yetkazishda qo‘llaniladigan belgilar va simvollarni o‘rganadi. Semiotik tahlil turli madaniyatlarning belgilari va simvollari, umuman, qabul qilingan amaliyot va standartlar haqidagi tasavvurning barcha nyuanlarini hisobga olish imkonini beradi, bu turli mamlakatlarda farq qilishi mumkin.

Semiotik tahlil matnlarning leksik va ramziy mohiyatining tavsifiy va tahliliy yondashuvidir. Ushbu yondashuv, AKT diskursidagi matnlarni tarjima qilishda juda qo‘l keladi, bunda nafaqat leksik va grammatik tuzilmalar, balki axborotni uzatish yo‘li, belgi va simvollardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bu tahlil matnning makro va mikrostrukturalari tahlilini o‘z ichiga oladi, ya‘ni belgi (so‘zlar, iboralar, jumlar) sifatida matnning kattaroq ahamiyatga ega birliklarini hosil qilish uchun qanday birikishini tasvirlaydi. Bundan tashqari, axborotni yetkazish uchun ko‘pincha AKTda qo‘llaniladigan turli belgilar va simvollar (masalan, nishonlar, grafiklar, videolar) ishlatilishini tahlil qilish imkonini beradi. AKT diskursidagi matnlarni tarjima qilish kontekstida semiotik tahlil quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi:

1. Aniq belgi va ramzlarni hisobga olish. Internet va AKT umuman boshqa tilga tarjima qilinganida, tarjimonga ma‘lum bo‘lmagan turli qisqartmalar, abreviaturalar,

piktogrammalar va boshqa vizual effektlardan foydalanadi. Semiotik tahlil tarjimonga, ushbu belgilarni to‘g‘ri yetkazib berish uchun ularni yoritishga yordam beradi. Bunga quyidagilar misol bo‘la oladi: Xeshteg (#) – ijtimoiy tarmoqlarda teg orqali tilga olingan iboralarni tartibga solishda ishlatiladigan simvol. QR-kodlar – davlat va tilga qarab turlicha bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni yetkazishda qo‘llaniladigan ikki o‘lchovli barkodlar. Piktogrammalar – axborotni ifodalash uchun foydalaniladigan grafik ramzlardir. Masalan, to‘xtash belgilari, yo‘nalish ko‘rsatkichlari va boshqalar. Qisqartmalar- har bir so‘zning birinchi harflaridan hosil qilingan qisqartmalardir. Ulardan internetda yozish va muloqotni osonlashtirish uchun foydalaniladi. Ikonkalar – turli amallarni ifodalash uchun ishlatiladigan grafik ramzlardir, masalan “print” (pechatga berish), “search” (qidiruv) kabi amallarni ifodalash uchun ishlatiladi. Muayyan klaviatura kombinatsiyalari – bu muayyan harakatlarni bajarish uchun ishlatiladigan klaviaturadagi tugmalar birikmasi bo‘lib, ularning ma‘nosini to‘g‘ri tushunish, ko‘rsatmalar berishda va boshqa matnlarni to‘g‘ri tarjima qilishda muhim hisoblanadi.

2. Matnni qabul qiluvchi mamlakat madaniyatiga moslashtirish. Semiotik tahlil tarjimonga yanada samarali va tushunarli matn yaratish maqsadida, ona tilida so‘zlashuvchining maqsadli madaniyatida eng mos keladigan belgilar va ramzlardan qanday foydalanishni tushunishga yordam beradi. Masalan, Rossiyada madaniy amaliyot va terminologiyaga mos kelishi uchun matnlarni rus tiliga tarjima qilishda “soccer” atamasi “futbol” deb tarjima qilinadi. Rossiyada milliy urf-odatlar va taomlarni tushunishga to‘g‘ri kelishi maqsadida matnni ispan tilidan rus tiliga tarjima qilishda “desayuno” atamasining “nonushta” deb tarjima qilinishi shular jumlasidandir.

3. AKT diskursida hissiy-madaniy konsepsiyani yetkazish. Belgilar va ramzlardan foydalanish nafaqat ma‘lumot mazmunini, balki tarjimada yetkazilishi kerak bo‘lgan hissiy va madaniy kontekstni ham ifodalaydi. Semiotik tahlil tarjimonga konsepsiyaning ushbu turlarini tushunishga va ularni shunga mos ravishda yetkazib berishga imkon beradi. Xabarlarda va sharhlarda emodjilar (maxsus grafik simvollari)dan kulgu, qayg‘u, ajablanish va boshqa hissiy konsepsiyani yetkazishda foydalaniladi. Muayyan aloqa vositalari yoki ilovalar bilan bog‘liq qisqartmalar va jargonlardan foydalanish, ma‘lum bir foydalanuvchi guruhidagi madaniy kontekst va umumiylikni ko‘rsatishi mumkin. Madaniy ramzlar va an‘analar bilan bog‘liq rasmlar, grafiklar va tasvirlar, madaniy konsepsiya va ijtimoiy-madaniy nyuanslarni yetkazishi mumkin. Veb-saytning o‘ziga xos ranglari, shriftlari yoki vizual dizayn uslublaridan foydalanish, tovar yoki mahsulot bilan bog‘liq hissiy va madaniy tushunchalarni yetkazishda qo‘llaniladi. Dasturiy ta‘minotda, ma‘lum funksiyalar yoki buyruqlarni

ko'rsatish uchun, ma'lum belgi yoki piktogrammalardan foydalanish, foydalanuvchilarning madaniy konsepsiyasi va odatlarini yetkazib berishda qo'llaniladi. Texnik matnlar va hujjatlarda muayyan termin va qisqartmalarning qo'llanilishi, muayyan soha yoki kasbning madaniy konsepsiyasi va normalarini bildirishi mumkin. Jumladan, matematik va kimyoviy formulalar yoki musiqiy notalar kabi maxsus ramzlarning qo'llanilishi, turli bilim sohalariga oid maxsus madaniy jihat va bilimlarni ifodalashda qo'llaniladi. Umuman olganda, semiotik tahlil tarjimon uchun muhim vosita bo'lib, u AKT sohasidagi matnli tarjimaning aniqligi va samaradorligini oshirishga, shuningdek, uni maqsadli auditoriya va konsepsiyaga moslashtirishga yordam beradi.

XULOSA

Umuman olganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari diskursidagi autentik matnlarni tarjima qilishda turli yondashuv va usullardan foydalanish yaxshi natijaga erishishni ta'minlaydi. Tarjima maqsadlari va asl nusxaning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, turli xil yondashuvlar qo'llanilishi mumkin. AKT diskursidagi autentik matnlarni tarjima qilishda turli yondashuv va usullardan samarali foydalanish, tarjima sifatini oshiradi va asl nusxaning lingvistik va madaniy xususiyatlarini saqlab qolish imkonini beradi.

Shunday qilib, autentik matnlarning tarjimasini tarjima faoliyatining maxsus sohasi bo'lib, tarjima qilishning turli texnik usullari va yo'nalishlaridan foydalanishni taqozo qiladi. Mahalliyashtirish, semiotik tahlil, texnik terminologiyadan foydalanish, tarjimani dunyoning turli mintaqalaridagi foydalanuvchilar uchun yanada aniqroq va funksional bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Сысоев П.В., Евстигнеев М.Н. Методика обучения иностранному языку с использованием новых информационно-коммуникационных интернет-технологий. – М.: Ростов-на-Дону: Глосса-Пресс; Феникс, 2010. – С. 6.
2. Соломатина А.Г. Развитие умений говорения и аудирования посредством учебных подкастов // Иностранные языки в школе. – Москва, 2012. – № 9. – С. 71–74.
3. Сысоев П.В. Направления и перспективы информатизации языкового образования // Высшее образование в России. – М., 2013. – № 10. – С. 90–97.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/trudnosti-dostizheniya-ekvivalentnosti-pri-perevode-slov-realiy/viewer>
5. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): Для институтов и факультетов иностр. языков. Учеб. пособие. 5-е изд. – СПб.:

Филологический факультет СПбГУ; – М.: ООО «Издательский Дом «ФИЛОЛОГИЯ ТРИ», 2002. – С. 9.

6. Сепир Э. Коммуникация / Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993. – С. 211.

7. Калиновский Ю.И. Развитие социально-профессиональной мобильности андрагога в контексте социокультурной образовательной политики региона: Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. – Омск, 2001. – С. 12.